

2022- yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 13 827,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 13 313,5 mlrd. so'mni (100,7 %), o'rmon xo'jaligi – 427,5 mlrd. so'mni (103,1 %), baliqchilik xo'jaligi – 86,2 mlrd. so'mni (135,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 10,6 %ni tashkil etdi.

**13 827,2****Toshkent viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**13 313,5** **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**427,5** **O'rmon xo'jaligi**


03

**86,2** **Baliqchilik xo'jaligi**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2022- yilning yanvar–iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,3 %i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,1 %i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,6 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2022- yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (1 458,3 mlrd. so‘m) O‘rta Chirchiq (1 244,3 mlrd. so‘m), va Bo‘stonliq (1 079,5 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (8,6 mlrd. so‘m), Ohangaron (25,8 mlrd. so‘m) va Nurafshon (37,7 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur‘atlari Yuqori Chirchiq (104,4 %), Quyi Chirchiq (104,3 %), O‘rta Chirchiq (104,4 %) va Toshkent tumanlarda (102,8 %) kuzatildi. Qibray (91,9 %), Piskent (98,5 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar–iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 13 827,2 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,0 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 4 969,7 mlrd. so'mni (98,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 8 247,8 mlrd. so'mni (102,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

37,6 %
Dehqonchilik mahsulotlari




62,4 %
Chorvachilik mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,3 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 10,8 % – fermer xo'jaliklariga, 8,9 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2022-yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent tumanida (30,1%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Chirchiq shahrida (99,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Ohangaron shaharda (38,8 %) qayd etildi.




Dehqonchilik mahsulotlari

2022- yilning yanvar–iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 969,7 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan -1,3 % ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,6 %ni tashkil qildi.

Donli ekinlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 294,7 ming t. don va dukkakli don (2021– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 12,8 %ga kam) ishlab chiqarildi. Don va dukkakli don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,8 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 138,7 ming t. kartoshka (2021– yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 345,6 ming t. sabzavotlar (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,7 %ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirildi ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirildi umumiy hajmidan 87,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Toshkent viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish,
tonna**






Chorvachilik mahsulotlari



2022- yilning yanvar–iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 8 247,8 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,4 %ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulot-larining ulushi 62,4 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 148,8 ming t. goʻsht (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,4 %ga koʻp), 472,9 ming t. sut (0,9 %ga koʻp), 608,9 mln. dona tuxum (- 6,4 %ga kam), yetishtirildi va 4 958,2 t. baliq (35,7 %ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 148,8 ming t. go'sht (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 1,4 %ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 85,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Toshkent viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 472,9 ming t. sut (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 0,9 %ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 93,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Toshkent viloyati bo'yicha
sut yetishtirish,
tonna**



Tuxum



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 515,4 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan -26,4 %ga kam) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 71,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent viloyati bo'yicha
tuxum yetishtirish,
ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar–iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 958,2 t. (2021- yilning yanvar–iyuniga nisbatan 2,9 %ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan, baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 91,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Toshkent viloyati bo'yicha
ovlangan **baliqlar**,
tonna





Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2022– yilning 1– iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 86,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 32,0 % i fermer xo'jaliklariga, 62,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 19,2 % i fermer xo'jaliklariga, 77,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 1,1 % i fermer xo'jaliklariga, 60,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 38,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 910,0 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 21,2 ming taga (2,4 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 86,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati
bo'yicha **yirik shoxli**
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 397,0 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,8 ming taga (1,2 %) ko‘paydi.

Sigirlar




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati
bo'yicha **sigirlarning**
umumiy bosh soni,
ming bosh




2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 072,5 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 62,3 ming taga (6,2%) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 62,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 54 276 taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 359 taga (0,7 %) ko‘paydi.

Otlar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 77,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 14 218 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 1 349 ming taga (-8,5 %) kamaygan.

Parrandalar




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 60,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha
parrandalar ning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-202-86-69
• 99-444-34-03